

ADVOKATLAR MALAKASINI OSHIRISH VA IMIJINI YUKSALTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI

Normamat Ramazonovich Mallayev

Yuridik fanlar nomzodi, dotsent.

Ismatov Islombek Ilhom o'g'li

Termiz davlat universiteti Advokatlik faoliyati mutaxassisligi 1-kurs tinglovchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17221623>

Annotatsiya. Ushbu maqolada, advokatlar malakasini oshirish va imijini yuksaltirishning dolzarb muammolari haqida fikr va mulohazalar yuritiladi. Yuridik tizimda adolat, qonun ustuvorligi va fuqarolarning huquqiy manfaatlarini himoya qilishda advokatlarning o'rni beqiyosdir. Biroq so'nggi yillarda advokatura tizimida kasbiy malakani oshirish va jamoatchilik orasida ijobiy imijni shakllantirish borasida qator muammolar mavjudligi kuzatilmoqda.

Bugungi kunda, advokatura institutini takomillashtirish, advokatlarning kasbiy nufuzini oshirish va advokatlarning chinakam mustaqilligini ta'minlash sohasida bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

Kalit so'zlar: advokat, malaka oshirish, yuksaltirish, advokatura tizimi, dolzarb muammolari, kasbiy vazifalar.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga yangi bob qo'shilib, unda advokat o'z kasbiy vazifalarini amalga oshirayotganda uning faoliyatiga aralashishga yo'l qo'yilmasligi, o'z himoyasidagi shaxs bilan moneliqsiz va xoli uchrashish, maslahatlar berish uchun shart-sharoitlar ta'minlanishi, uning sha'ni, qadr-qimmati va kasbiy faoliyati davlat himoyasida bo'lishi va qonun bilan muhofaza qilinishi belgilandi. Yuqoridagilar bilan bir qatorda, advokatura faoliyatiga axborot-kommunikatsiyatexnologiyalarini joriy qilish orqali advokatura sohasi tubdan yangilanib borayotgan bo'lib, bu orqali jismoniy va yuridik shaxslarga yuridik yordam ko'rsatish yangi bosqichga ko'tarilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston 2030" strategiyasi to'g'risidagi farmonida ham advokatura institutining salohiyatini tubdan oshirish, hamda malakali huquqiy yordam ko'rsatish tizimini rivojlantirish maqsadida: advokatura institutini o'z-o'zini boshqarish tizimiga o'tkazish shuningdek uning davlat organlari va boshqa tuzilmalardan chinakam mustaqilligini ta'minlash; advokatlar malakasini oshirishning zamonaviy va xalqaro standartlarga mos keluvchi va muqobillik tamoyiliga asoslangan tizimini joriy etish; advokatlar sonini kamida 2000 nafarga ko'paytirish; fuqarolik, ma'muriy va iqtisodiy ishlar bo'yicha advokatlar hamda sudlar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va boshqa davlat organlari o'rtasida elektron hujjatlar almashinuvi darajasini kamida 50 foizga yetkazish vazifalari belgilandi.¹

2023 yilda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan o'tkazilgan monitoringda ishtirok etgan 1200 nafar advokatning 38 foizi oliy yuridik ta'lim amaliyotga tayyorlamaganini bildirgan.

¹ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son <https://lex.uz>

Mavjud malaka oshirish kurslari ko‘pincha zamonaviy yondashuvlardan yiroq, interaktiv emas va an‘anaviy maruzalar shaklida o‘tmoqda. Bu esa ishtirokchilarning real ko‘nikmalarini oshirishga emas, faqatgina “sertifikat olish”ga qaratilgan. Advokatura palatasi 2024 yilda 25 ta malaka oshirish kursini o‘tkazgan bo‘lib, ularda qatnashganlarning 52 foizi kurslar amaliy foyda berganini so‘rovnoma da rad etgan. Advokatlarga nisbatan jamoatchilik orasida salbiy stereotiplar saqlanib qolmoqda: “pul evaziga himoya qiladigan odamlar”, “sudda faqat boylar yutadi”, “haqiqatni emas, mijozni himoya qiladi” kabi fikrlar keng tarqalgan.²

2024 yilda o‘tkazilgan so‘rovnoma ga ko‘ra, ishtirokchilarning atigi 19 foizi advokatlarga to‘liq ishonishini bildirgan. Advokatlar ko‘pincha OAVda korrupsiyaga aloqador yoki jinoyat ishlarida himoyachisi bo‘lgan shaxs sifatida yoritiladi. Biroq ularning ijtimoiy adolatni qaror toptirishdagi ijobiy faoliyati haqida deyarli yoritilmaydi. 2023 yil davomida respublika telekanallarida advokatlar ishtirokida efirga uzatilgan 80 dan ortiq syujetdan atigi 5 tasi ularning ijobiy faoliyatiga bag‘ishlangan.

2024 yil holatiga ko‘ra, faqat Toshkent shahridagi 3 ta oliy yuridik muassasa advokatlar uchun ochiq kutubxona va onlayn platformalarga ega. Boshqa viloyatlarda bunday imkoniyatlar mavjud emas. Viloyatlarda faoliyat yurituvchi advokatura bo‘limlari ko‘pincha yetarli mablag‘ va kadrlar bilan ta‘minlanmagan. Bu esa malaka oshirish bo‘yicha rejalashtirilgan ishlarning amalda to‘liq bajarilmasligiga olib keladi.³ Advokatlar soni yildan-yilga oshayotgan bo‘lsa-da, ularning sifat jihatidan tayyorgarligi bir xilda emas. Ba‘zan advokatlik guvohnomasini olgan shaxslar o‘z kasbiga yondashyvdа jiddiy kamchiliklarga yo‘l qo‘ymoqda. 2023 yilda 183 nafar advokatning litsenziyasi intizomiy yoki axloqiy qoidabuzarlik sababli to‘xtatilgan. Advokatura tizimida advokatlarning ijobiy qiyofasini targ‘ib qilishga yo‘naltirilgan PR strategiyalar deyarli mavjud emas. Advokatlar jamiyat oldida o‘z faoliyatini targ‘ib qilishda passiv.

Malayziya, Singapur, AQSh, Rossiya, Gruziya va Qozog‘istonda sud majlislarida barcha turdagi sud ish yurituvlari bo‘yicha audioyozuvlar sud tomonidan avtomatik tarzda olib boriladi.

Bu amaliyot sud majlislari yozma bayonnomalarida yuzaga keladigan soxtalashtirish va noaniqliklar bilan bog‘liq shikoyatlar sonini sezilarli darajada kamaytirishga xizmat qilgan.

O‘zbekistonda barcha turdagi sud ish yurituvlarida sud tomonidan avtomatik tarzda audioprotokollashtirish tartibini joriy etish vaqti allaqachon yetib kelgan. Aks holda, parlament yoki sud oshkoralik prinsipi talabidan kelib chiqib, ishda ishtirok etayotgan va sud majlisida hozir bo‘lgan shaxslarga hech kimning, jumladan, raislik etuvchining roziligisiz audioyozuv olib borish imkoniyatini yaratib berishi lozim.⁴

Xulosa. Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, advokatlar jamiyatdagi adolat, qonun ustuvorligi va fuqarolarning huquqiy manfaatlarini himoya qilishda muhim o‘rin tutadi. Ularning malakasini doimiy ravishda oshirish nafaqat yuridik bilim va ko‘nikmalarni chuqurlashtiradi, balki kasbiy faoliyatda yuzaga keladigan yangi chaqiriqlarga munosib javob berish imkonini ham yaratadi.

Shu bilan birga, advokat imijining shakllanishi – ularning axloqiy fazilatlarini, muloqot madaniyati, tashqi ko‘rinishi va jamoatchilik bilan aloqalarini o‘z ichiga olgan muhim omildir.

² <https://anhor.uz/uzl/columnists/ozbekiston-advokaturasining-dolzarb-muammolari/>

³ Лубшев Ю.Ф. Курс адвокатского права: Учебник. – 2-е изд. – М.: ООО«Профобразование», 2004. – С. 353.

⁴ Стецовский Ю.И. Становление адвокатуры в России. – М.: Волтерс Клувер, 2010. – С.448–449.

Malaka va imij uyg'unligi, o'z navbatida, fuqarolarning advokatura institutiga bo'lgan ishonchini mustahkamlab, adolatli jamiyat barpo etishga xizmat qiladi. Shunday ekan, har bir advokat o'z ustida doimiy ishlashi, kasbiy mahoratini oshirishi va ijobiy imij yaratishga intilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son <https://lex.uz>
2. <https://anhor.uz/uzl/columnists/ozbekiston-advokaturasining-dolzarb-muammolari/>
3. Лубшев Ю.Ф. Курс адвокатского права: Учебник. – 2-е изд. – М.: ООО «Профобразование», 2004. – С. 353.
4. Стецовский Ю.И. Становление адвокатуры в России. – М.: Волтерс Клувер, 2010. – С.448–449.